

JADIDLARNING TARAQQIYPARVAR G‘OYASI.

Xujamov Mamarajab Eshnyazovich
USAT katta o‘qituvchisi, Tel: 94-6127511,
Komilova Ruxshona - USAT,
“Ijtimoiy fanlar” fakulteti, Tarix 1-01 gr. talabasi

Hozirgi vaqtda dunyoda globallashuv jarayoni borgan sari kengroq tus olib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning yetakchi mavqeni egallayotgani kabi madaniy hayotni, shuningdek, ta’lim-tarbiyaning ham muhim ahamiyat kasb etayotgani e’tiroflidir. Shu boisdan tarixga nazar tashlasak, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda xalqimizning ijtimoiy, siyosiy va tarixiy tafkkuri, ilg‘or qarashlarining yaqqol ifodasi sifatida jadidchilik[1]harakatining yuzaga kelib, faol va murakkab hayot tarzini boshidan kechirganligini eslash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki jadidchilik ma’rifatparvarlik harakatining yuqori bosqichi bo‘lib, uning namoyondalari o‘lkani qoloqlikdan olib chiqish, milliy mustaqillikka erishish yo‘lida fidoyiliklarini namoyon etdilar.[2]

O‘lkada jadidchilikning vujudga kelishiga asosiy sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

bir tomondan, so‘nggi o‘rta asrlardan beri saqlanib kelayotgan iqtisodiy-xo‘jalik va madaniy hayotdagi qoloqlik, diniy mutaassiblik;

ikkinchi tomondan esa Chor Rossiyasi mustamlakachiligi asoratiga tushib qolgan o‘lkadagi og‘ir ahvol edi.

Taraqqiyparvar jadidlar o‘lkani ana shunday tanazzuldan, mustamlakachilik sharoitidan olib chiqishni hamda taraqqiy toptirishning muvofiq yo‘li – xalqqa, yosh avlodga zamonaviy ta’limni yetkazishdir, deb bildilar. Ya’ni, “Jadidchilik harakati deb nom olgan oqim vakillari mamlakat, xalqning mustaqilligi uchun, birinchi navbatda maorif va talim-tarbiyani tubdan o‘zgartirish, yangi maktablar tuzish, ularni boshqarish masalalarini asosiy o‘ringa ko‘tardilar”. [3]

Shuningdek, ular o‘z faoliyatlarida jahon taraqqiyoti tajribalaridan ham foydalanganlar. Biroq taqlid bilan emas. Zero: “Taqlid esa taraqqiydan uzoq”, - deb ta’kidlaydi Shohid Ehsan. Yana: “Ma’naviyatimizni na yolg‘uz G‘arbdan kelgan, nada yolg‘uz Sharqdan kelgan ziyo yorug‘lata olur. Balki har ikkisining birlashmog‘i bilan hosil bo‘lgan bir zo‘r ziyo yorug‘lata olur”, [4] - deya qayd etgan edi.

Taraqqiyotga erishuv yo‘lida bajarilishi lozim ishlarning boshida avvalam bor, ta’lim masalasi turishini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan edilar. Bunga misol qilib 1914 yilgi jadid matbuotida chop etilgan “Taraqqiyparvarlik” maqolasida “Har bir millatning taraqqiysi tartib va ketma-ketlik bilan: **ilm – sanoat – tijorat - ziroatdan** boshlanadi”, [5] - deyilgan so‘zlarning keltirilganini aytsa bo‘ladi. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, millat taraqqiyotining shartida dastavval ilm, yani ta’lim va tarbiya ishi turganligi ta’kidlab o‘tilgan. Jadidchilik harakatida faol bo‘lgan taniqli siymolar - Ismoilbek Gaspirali, Ahmad Zaki Validiy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Asadulla Xo‘jaev, Fayzullo Xo‘jaev, Ashurali Zohiriy, Po‘lat

Soliyev, Is'hoqxon Ibrat va boshqalar Vatan va xalq istiqboli yo'lida jonkuyar bo'ldilar. Ularning deyarli barchasi musulmonlarning sanoat, hunar, ilm va siyosatda boshqa millat vakillaridan ortda qolganliklarining muhim sababi uzluksiz zamonaviy maktablarning yo'qligidan deb bildilar. Bu sohada yana Hoji Mo'in Shukrulloning quyidagi misralarini keltiramiz: "Millatning taraqqiysi aning avval muntazam maktablaridan boshlanur. Zotan insonning saodati maktab tarbiyasidan vujudga kelmasmi? Til va milliy adabiyot, din va axloq talimining o'rni maktab bo'lganidan, hayot va saodat basharining eshigi ilgiz maktabdur"[6], - deb yozgan edi.

Taraqqiyparvar jadidlar shu tariqa Turkiston kelajagi bo'lgan yosh avlodning milliy-siyosiy ruhda kamol toptirish maqsadida, ular uchun dastavval o'zlari hisobidan zamonaviy ko'rinishdagi yangi usul maktablarini ochgan edilar. Bularga misol qilsak, XIX asr oxirlarida Turkistonda Salohiddin domla (Qo'qon, 1899 yil), Shamsiddin domla (Andijon, 1899 yil), Mannon Qori (Toshkent, 1899 yil)lar tamonidan dastlabki yangi usul maktablari ochilgan. Maktablar faoliyatini XX asr boshlarida Munavvar Qori Abdurashidxonov, A. Avloniy, M.Behbudiy, So'fizoda, I.Ibrat, Hoji Muin va boshqa ko'plab ma'rifatparvarlar davom ettirib, yoshlarni dunyoviy bilimlarni chuqur egallash barobarida diniy ilmlarga ham ega bo'lishlariga, ularda milliy istiqbol g'oyalarini shakllantirish, mamlakat va millat ravnaqi uchun kurashadigan qilib tarbiyalashga e'tibor qaratdilar. Jadidlar harakati ta'sirida Turkiston maorifi tizimi tubdan o'zgardi, lekin oldinda qator muammolar yotardi. Ular ziyolilar va yosh o'quvchilarning bilimlarini kengaytirish maqsadida kitob do'konlari, kutubxonalar tashkil etishga harakat qildilar.

Qisqacha xulosa qilganimizda, taraqqiyparvar jadidlar o'z davrining ilg'or qarashlarini mujassamlashtirib, jamiyat hyotining barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim-tarbiyaga bog'liq bo'lgan ilg'or fikrlarni ilgari surdilar. Ularning bu boradagi qarashlari hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi. Ta'lim jarayonida taraqqiyparvar jadidlar faoliyatini samarali o'qitilishiga doir quyidagi o'z fikr va mulohaza hamda takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, jadidlar tomonidan avval ilgari surilgan g'oya va tajribalarni muntazam ravishda o'rganib borish hozirning ham dolzarb masalaridan biri ekanligi;

Ikkinchidan, o'quvchi, talaba-yoshlarning taraqqiyparvar jadidlar faoliyat yuritgan tarixiy davr, muhit va undagi shart-sharoitlar to'g'risida yetarlicha tasavvur va xulosalarga ega bo'lishlarining muhimligi;

Uchinchidan, dars mashg'ulotlarini zamonaviy ped. texnologiyalar asosida, ko'rgazmali vositalardan foydalanib o'tilishiga erishish;

To'rtinchidan, o'quvchi, talaba-yoshlarni mavzuga doir mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mustaqillik: ilmiy-ommabop lug'at. Toshkent, "Sharq", 2000 y. 56-b.
- 2.O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan, akad. M.Xayrullayev tahririda,Toshkent, "O'zbekiston", 1995 y. 221-b.
- 3.Mustafayeva N. Turkiston jadidlari qarashlarida ta'lim-tarbiya masalalari. O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga yangi chizgilar. Davriy to'plam, №2, Toshkent, "Sharq", 1999

y., 105-b.

4. Shohid Ehson, Biz va maorif, "Haqiqat", 1922 y. 1-son, 5-6-b.

5. "Sadoi Farg'ona", 1914 y. 2-noyabr, №79.

6. Hoji Muin Shukrullo. Yoshlarga murojaat, Samarqand, 1913 y. 9 avgust, 34-son.